

HIGH SPIRITUAL GENERATION - A NEW WORLDWIDE OF THE THIRD RENESS BUILDERS.

Djumaye va S.A.

TDPU named after Nizami, General pedagogy
chair associate professor v.b.

Mardonov R.H,

TDPU named after Nizami,
2nd year student of the Faculty of Military Education

Annotation: This article is about the upbringing of a high-spirited generation, the high-spirited youth who are an example to the peers of the Republic. The establishment of a new Uzbekistan is not just a wish, a subjective event, but a situation that fully meets the centuries-old aspirations of our people, the current political, legal, socio-economic, spiritual and educational situation in our country, which has a deep historical basis. is an objective necessity.

Keywords: spirituality, Renaissance, creative, new worldview, hopes of the nation.

YUKSAK MA'NAVIYATLI AVLOD - UCHINCHI RENESSANS BUNYODKORLARINING YANGICHA DUNYOQARASHLARI.

Djumaye va S.A.

Nizomiy nomidgi TDPU, Umumiy pedagogika
kafedrasi dotsent v.b

Mardonov R.H,

Nizomiy nomidagi TDPU,
Harbiy ta'lim fakulteti 2- kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yuksak ma'naviyatli avlodni tarbiyalash, Respublikamiz tengdoshlariga o'rnak bo'lib kelayotgan yuksak ma'naviyatli yoshlar haqida so'z boradi. Yangi O'zbekistonni barpo etish bu shunchaki xohish- istak, sub'yektiv hodisa emas balki tub tarixiy asoslarga ega bo'lgan mamlakatimizdagi mavjud siyosiy- huquqiy, ijtimoiy- iqtisodiy, manaviy- marifiy vaziyatning o'zi taqozo etayotgan xalqimizning asriy intilishlariga mos uning milliy manfaatlariga to'la javob beradigan ob'yektiv zaruratdir.

Kalit so'zlar: ma'naviyat, Renessans, bunyodkor, yangicha dunyoqarash, millat umidlari

Ma'naviyat tushunchasi - insonning ruhiy va aqliy olamini ifodalovchi tushuncha, ya'ni oziq ovqat insonga jismoniy quvvat bersa, ma'naviyat esa insonga ruhiy ozuqa va qudrat bag'ishlaydi. Ana shunday tushunchalarni chuqur anglagan holda O'zbekiston Respublikasida ham yuksak ma'naviyatli yoshlarni tarbiyalash va ularni xalqqa jamiyatga, foydasi tegadigan inson qilib tarbiyalash borasida katta ko'lamdagi ishlar olib borilmoqda. Insoniyat tarixi shundan dalolat beradiki har qaysi xalq hayotdagi manaviy o'yg'onish jarayonlari milliy o'zlikni anglashga olib keladi hamda mamlakatning iqtisodiy madaniy taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradi. Bunday ijtimoiy noyob hodisa RENESSANS uyg'onish, qayta tiklanish, yuksalish deb atalishi barchamizga ma'lum.

Ma'lumki bugungi O'zbekiston zamini qadimda ikki buyuk uyg'onish davriga (birinchi marifiy IX-XII asrlarda) ikkinchisi XIV -XV asrlar Renessansiga beshik bo'lgan. Bu jahon ilm - fanida o'z isbotini topgan va tan olingan tarixiy haqiqatdir. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda yana bir muhim uyg'onish jarayoni kechmoqda shuning uchun yangi O'zbekiston va uchinchi Renessans so'zlari hayotimizda o'zaro uyg'un va

hamohang bo'lib yangramoqda, xalqimizni ulug' maqsadlar sari ruhlantrmoqda. Takidlash joizki, yangi O'zbekistonni barpo etish bu shunchaki xohish – istak, sub'yektiv hodisa emas balki tub tarixiy asoslarga ega bo'lgan mamlakatimizdagi mavjud siyosiy- huquqiy, ijtimoiy- iqtisodiy, manaviy- marifiy vaziyatning o'zi taqozo etayotgan xalqimizning asriy intilishlariga mos uning milliy manfaatlariga to'la javob beradigan ob'yektiv zaruratdir. O'zbekiston Prezidenti tomonidan Sh.M.Mirziyoyev 2018- yil 27 - iyunda imzolangan yoshlar kelajagimiz davlat dasturi to'g'risida farmon bu boradagi ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan muhim hujjat bo'ldi. O'zbekistondagi barcha o'zgarishlarning negizi hisoblangan ta'lim - tarbiya tizimida ham tub islohotlar olib borilmoqda. Ayni vaqtda ta'lim shu jumladan ijtimoiy soha uchun harajatlar miqdori davlat byudjeti harajatlar umumiy qiymatining yarimidan ko'prog'oni tashkil etmoqda. Tabiiyki har qaysi davlat bunday katta harajatlarni ko'tara olmaydi, ammo qanchalik og'ir bo'lmasin buning uchun zarur mablag' va resurslar izlab topilmoqda. O'zbekiston rahbari mazkur harajatlarni harajat emas, balki kelajak uchun qo'yilgan eng samarali sarmoya deb hisoblab, ta'lim darajasi va sifati har qanday davlatning istiqbolini belgilab beradigan muhim omil ekanini ta'kidlamoqda. Haqiqatan ham islohotning taqdiri, natijasi birinchi navbatda kadrlar saviyasiga, ularning davr va taraqqiyot talablariga nechog'lik javob bera olishiga bog'liq. Muhtasar aytganda O'zbekiston yoshlariga oid davlat siyosati aniq maqsadlarni ko'zlagan holda bosqichma bosqich kompleks chora-tadbirlarga asoslangan holda izchil davom ettirilmoqda. Bu borada davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan ijtimoiy, manaviy marifiy sohalarda sa'y harakatlarni tizimli asosda yo'lga qo'yish bo'yicha beshta muhim tashabbusni ilgari surishi O'zbekiston tarixida yoshlar ta'lim tarbiyasi bo'yicha yana bir yangi bosqichni va Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda uchinchi Renessansni dastlabki bosqichini belgilab bermoqda desak adashmagan bo'lamiz.

Prezidentimiz rahbarligida 2019-yil 19-martda "Yoshlar bilan ishlashni samarali tashkil etishda madaniyat, san'at, sport, axborot texnologiyalari, kitob o'qishga qiziqishini oshirish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni amalga oshirish to'g'risida" o'tkazilgan videosektor yig'ilishida yoshlarni rivojlantirishga qaratilgan masalalar muhokama qilindi va sohalarga taalluqli 5 ta muhim tashabbus ilgari surildi. Bular quyidagilar: Birinchi tashabbus - yoshlarni musiqa, rassomchilik, Adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishni oshirishga qaratilgan; Ikkinchi tashabbus - yoshlarni jismoniy chiniqtirish ularni sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan; Uchinchi tashabbus - aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan; To'rtinchi tashabbus - yoshlarni ma'naviyatini yuksaltirish ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan; Beshinchi tashabbus - xotin qizlarni ish bilan ta'minlash masalalariga qaratilgan

Davlat rahbarining ushbu ezgu g'oyasi O'zbekiston xalqi ayniqsa yoshlar tomonidan katta qiziqish bilan qarshi olinib qisqa vaqt ichida mamlakat bo'ylab keng quloq yozdi. Hozirgi vaqtda yoshlar hayotida keng joriy etilgan ushbu besh tashabbusga ko'ra hududlarda manaviy - madaniy markazlar, musiqa va san'at markazlari moddiy texnik bazalari va ulardan foydalanish holatlari keskin yaxshilandi. Yuksak ma'naviyatli yoshlarni kitobxonlik ko'nikmalarini mustahkamlash maqsadida yangi tashabbus doirasida Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlarga bir million nusxadan kam bo'lmagan miqdorda kitoblar yetkazib berildi, shuning barobarida har bir tuman shahar markazida bittadan namunali kitob do'konlari tashkil etildi, ko'chma kitob pavilyonlari joylashtirilib bibliobuslar orqali qishloq va ovullar aholisiga kutubxona xizmatlari ko'rsatib borilmoqda.

Mamlakatimizning barcha hududlarida yosh kitobxon ko'rik tanlovi o'tqazish an'ana tusiga kirdi. Ha albatta shuni ta'kidlab o'tish joizki ma'naviyatimizni yuksak darajaga olib chiqish uchun bizga kitob kabi yordam beradigan yaqin do'st yo'q aslida, ko'rik tanlov avval tuman keyin viloyat va Respublika bosqichlari o'tkazib kelinmoqda va tanlov g'oliblariga avtomobil sovg'asi berib kelinmoqda. Mamlakatimizda ma'naviyat tushunchasi hozirgi vaqtda siyosat darajasiga ko'tarilgani ko'pchilikni xursand qilmoqda

Prezidentimizning bir gaplari bor men yoshlarni kitob berib bo'lsa ham o'qitaman degan gaplari ko'pchilik yoshlar qalbida hozirgi zamon tili bilan aytganda motivatsiya uyg'otdi.

Bugungi yosh avlodni yuksak ma'naviyatli qilib tarbiyalash borasida yosh kitobxon tanlovidan tashqari o'z tariximizni o'zligimizni anglash borasida ham katta ko'lamdagi ishlar olib borilmoqda. Darhaqiqat inson o'z tarixini bilmasdan turib ma'naviyatning yuqori cho'qqisiga erisha olmaydi, Yoshlarni

o‘z tarixini bilish va o‘zlikni anglash va amalda ajdodlarimizga munosib bo‘lish borasida mamlakatimizda katta bunyodkorlik ishlari olib borilmoqda yoshlarimizni asriy an‘analar bilan tanishtirish va milliy g‘ururni yuksak darajaga olib chiqish borasida mamlakatimizda katta ko‘lamdagi ishlar olib borilmoqda. Toshkent shahrida joylashgan Amir Temur muzeyi, G‘alaba bog‘i, Shon sharaf muzeyi, Qarshi shahrida joylashgan Vatanparvar bog‘i va Respublikamizda qurilgan va qurulyotgan ma‘naviy ma‘rifiy va asriy an‘analarga asoslangan hududlar shular jumlasidandir. Ilim va ta‘limni qadriga yetib davlatimizda ilim va ta‘lim o‘rganish bilan muhit yaratilsa bobolarimizga munosib hayot , kelajakni qura olamiz deb ta‘kidlab o‘tgan Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev. Davlatimiz rahbari tomonidan uchinchi Renessansni poydevori aynan yoshlar bo‘lishini takidlashlari bejizga emas. Yuksak ma‘naviyatli avlodni va uchinchi Renessansni ilk asoslarini yaratish maqsadida 2021 - yil aynan yoshlarni qo‘llab quvvatlash yilidan boshlab har yili oliy ta‘lim muassasalari talabalari o‘rtasida uchinchi Renessans yoshlar nigohida loyihalar tanlovi tashkil etiladi. Ushbu tanlov har yili ikki marta to‘rt bosqichda bo‘lib o‘tadi, fakultetlararo, oliy ta‘lim muassasalari o‘rtasida, hududlar o‘rtasida, yakuniy Respublika bosqichi tanlov bo‘yicha g‘oliblarga 50 million so‘m miqdorida mukofot pullari taqdim etilmoqda.

O‘zbekiston yoshlariga, tengdoshlarimizga shuni ta‘kidlash lozimki, bizning ota - bobolarimiz butun dunyoga shu paytgacha ikki marta dars berib qo‘ygan bo‘lsa uchinchi marta dars berib qo‘yish biz yoshlarni qo‘limizdan keladi. Uchinchi Renessansni biz quramiz , bu buyuk maqsadga erishish uchun ko‘p kitob o‘qishimiz, o‘z ustimizda tinmay mehnat qilishimiz, o‘z kasbimizni mutaxassisi va vatanparvar inson bo‘lib yetishsak uchinchi Renessansni qurishga katta hissa qo‘shgan bo‘lamiz Hozirgi kunda rivojlanayotgan O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish uchun bir narsa aniqki bizni ko‘p vaqtimizni behuda sarflashga, internetda ko‘p o‘tirishga va hattoki kasal bo‘lishga ham haqqimiz yo‘q , biz unutmashimiz kerak biz toysak ortimizdan minglab odamlar yiqiladi shuni his qilgan holda jamiyatga foydasi tegadigan ilmi inson bo‘lishga harakat qilishimiz kerak .

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev bekorga XXI asr yoshlari uchinchi Renessans poydevori yaratuvchilari deb ta‘kidlamaganlar ,biz yoshlar avvalo mana shunday ishonchni mas‘ulyatni mohiyatni tushungan holda harakatni boshlashimiz kerak . Biz avvalo o‘zimizni o‘zgartirsak va ma‘naviyatimizni yuksak darajasini o‘zimizda aks ettira olsak yosh avlod ham bizga qarab o‘zgaradi. Axir aytishadiku sen jamiyatni o‘zgartirmoqchi bo‘lsang avval o‘zingni o‘zgartir deb. Yuksak ma‘naviyat bobida muvffaqiyatlarni ta‘kidlab o‘tish bilan birga kamchiliklarni ham aytish joizdir. Ko‘pchilik yoshlarni qahramoni sifatida hozirgi paytda afsuski tik -tok yulduzlari gavdalanadi. Aslida bunday bo‘lishi kerak emas, chunki hozirgi zamonamizda ham bizning O‘zbekistonimizda ham havas qilsa arzigulik va ma‘naviyatli yuksak uchinchi Renessans uchun munosib hissa qo‘shayotgan millat umidlari bor va bu insonlarni ta‘kidlab o‘tish lozim deb o‘ylayman va o‘z ustozimdan boshlayman.

Muhammad Ali Eshonqulov Yuksalish liderlar akademiyasi asoschisi, Patronlar ligasi loyihasi asoschilaridan biri , bundan tashqari biznes murabbiy, xalqaro toifadagi iqtisodchi , O‘zbekiston kelajagi uchun katta hissa qo‘shib kelayotgan yoshlardan biri, Temur Adhamov Najot ta‘lim o‘quv markazi asoschisi va osmondagi bolalar loyihasi muallifi, yurt ravnaqi uchun munosib hissa qo‘shayotgan yoshlardan biri , Umidjon Ishmuhammedov Cembridj o‘quv markazi asoschisi , O‘zbekistonga ELTS ni olib kelgan va millat umidi loyihasi asoschisi. Bunday yoshlar O‘zbekistonda juda ko‘p, lekin afsuski ko‘pchilik yoshlar manas hunday insonlarni o‘zlariga ko‘mer qilib olib ularga ergashishni o‘rniga yuqorida ta‘kidlab o‘tganimizdek Instagram, tik tok yulduzlariga ko‘p bog‘lanib qolyabdi bu hol achinarli albatta. Bunday vaziyatda biz qanday yo‘l to‘tishimiz kerak? Tengdoshlarimiz shuni unutmaylikki, odamzodni hayvonotdan ajratib turadigan chegara bor, bu chegaraning nomi Ma‘naviyat deb ataladi. XXI asr yoshlari O‘zbekiston farzandlari, biz o‘sha xalq uzoq kutgan oltin avlodmiz, millat umidimiz shuni his etib, mohiyatni tushungan holda vatanimiz rivojlanishi uchun tinmay ilm olishimiz kerak, buning uchun Vatanimizda juda ko‘plab beminnat sharoitlar yetarlicha .

Hurmatli yoshlar keling bugundan boshlab menman o‘sha millat umidi, menman o‘sha ilmi inson, menman o‘sha sahovatli boy deya harakatni boshlaymiz. Umuman biz yoshlarning ta‘lim olishimiz, kasb - hunar egallashimiz yetuk ma‘naviyatli insonlar bo‘lib ulg‘ayishimiz yo‘lida zamonaviy ilg‘or - innovatsion

shart sharoitlarini yaratib berish uchun O‘zbekiston Respublikasida bor kuch imkoniyatlar ishga solinmoqda . Biz yoshlarni davlatimiz tomonidan jamiyat qatlamidagi bir muommo emas balki yurt ravnaqini ta‘minlovchi katta kuch davlatning strategik resursi sifatida qaralyotgani biz yoshlarni ongimizda g‘urur va iftixor o‘zimizga bo‘lgan ishonchni yanada orttirishga turtki bo‘lmoqda. Eng asosiysi harakatda barokat deganlaridek, biz eng qiyin bosqichdan o‘tdik ya’ni yo‘limizni aniq belgilab, katta ishlarni boshladik . Endi hamma gap islohotlar yo‘lini qattiyat bilan davom ettirish va mantiqiy yakuniga yetkazishdir. Bu albatta oson emas, ammo biz bunga qodirmiz, muhimi keyingi yilda bunday ulkan va murakkab vazifani amalga oshirish uchun yetarli siyosiy, huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy. ma’naviy- marifiy, tashkiliy, institutsional zamin yaratildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021yil 19 yanvar kuni ma’naviy- ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo‘yicha videosektor yig‘ilishi o‘tkazildi.– Agar kimdir, ma’naviyat masalasi – bu faqat Ma’naviyat markazi yoki tegishli vazirlik va idoralarning ishi, deb o‘ylasa, xato qiladi. Bularning barchasi oldimizda turgan eng asosiy, eng muhim vazifalardan biridir, – dedi Prezident. – Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir, – dedi Shavkat Mirziyoyev yig‘ilishda. – Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi –ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyat.

Xulosa qilib aytganda, biz yoshlar uchunchi Renessans bunyodkorlarimiz!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yoshlar - Kelajagimiz davlat dasturi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 27.06.2018- yildagi PF - 5466 - son
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2019- yil 19- martdagi 12- sonli bayoni 5 tashabbus bo‘yicha qabul qilingan qarori